



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 194 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASIDA IJTIMOIIY- MADANIY MUHITNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

Malikova Dilraxon

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirish o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish hamda ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini nazariy jihatdan asoslashdir. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, ilmiy sintez hamda ijtimoiy-pedagogik, aksiologik va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijasida ijtimoiy-madaniy muhitning ijtimoiy-pedagogik mohiyati aniqlashtirildi, uning tarkibiy komponentlari tizimlashtirildi hamda pedagogik boshqaruv, ijtimoiy sheriklik, qadriyatlar tizimi va kommunikativ hamkorlikka asoslangan integrativ model taklif etildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari takomillashtirilganligi va uning mualliflik talqini ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Olingan natijalar ta'lim muassasalarida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy muhit, ijtimoiy pedagogika, umumiy o'rta ta'lim, pedagogik rivojlantirish, ijtimoiylashuv, pedagogik boshqaruv, ijtimoiy sheriklik, qadriyatlar tizimi, fuqarolik kompetensiyasi, ta'lim muhiti.

Abstract: In the context of educational modernization, developing the socio-cultural environment in general secondary education institutions has become a significant factor in students' socialization, the formation of civic competencies, and their moral development. The aim of this study is to theoretically substantiate the socio-pedagogical necessity of developing the socio-cultural environment in general secondary education institutions. The research employed systematic analysis, comparative analysis, content analysis, scientific synthesis, as well as socio-pedagogical, axiological, and competency-based approaches.

The findings clarify the socio-pedagogical essence of the socio-cultural environment, systematize its structural components, and propose an integrative model based on educational management, social partnership, value orientation, and communicative interaction. The scientific novelty of the study lies in improving the theoretical and methodological foundations of socio-cultural environment development and proposing an original authorial interpretation of this concept. The findings may serve as a methodological basis for developing strategies to improve the socio-cultural environment in educational institutions.

Key words: socio-cultural environment, social pedagogy, general secondary education, pedagogical development, socialization, educational management, social partnership, value system, civic competence, educational environment.



Аннотация: В условиях модернизации системы образования развитие социокультурной среды общеобразовательной школы является важным фактором социализации обучающихся, формирования гражданских компетенций и духовно-нравственного развития личности. Цель исследования - теоретически обосновать социально-педагогическую необходимость развития социокультурной среды в учреждениях общего среднего образования. В исследовании использованы методы системного, сравнительного и контент-анализа, научного синтеза, а также социально-педагогический, аксиологический и компетентностный подходы.

В результате уточнена социально-педагогическая сущность социокультурной среды, систематизированы её структурные компоненты и предложена интегративная модель, основанная на педагогическом управлении, социальном партнёрстве, системе ценностей и коммуникативном взаимодействии. Научная новизна исследования заключается в совершенствовании теоретико-методологических основ развития социокультурной среды и разработке авторской интерпретации данного понятия. Полученные результаты могут быть использованы при разработке стратегий развития социокультурной среды образовательных организаций.

Ключевые слова: социокультурная среда, социальная педагогика, общее среднее образование, педагогическое развитие, социализация, педагогическое управление, социальное партнёрство, система ценностей, гражданская компетентность, образовательная среда.

KIRISH

XXI asrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va texnologik taraqqiyoti ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, axborot oqimining keskin ortishi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi hamda shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim muassasalarining faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada maktabning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faolligi va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligini ta'minlaydigan ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish bilan ham uzviy bog'liq bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish hamda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son¹ "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tadqiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda xalqaro miqyosda ta'lim sifatini baholash mezonlari ham tubdan o'zgarmoqda. Endilikda o'quvchilarning faqat akademik yutuqlari emas, balki ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, kommunikativ kompetensiyalari, hamkorlik madaniyati, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy moslashuv darajasi ham ta'lim samaradorligining muhim ko'rsatkichlari sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois UNESCO, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhitini barqaror rivojlanish, inklyuziv ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning asosiy shartlaridan biri sifatida baholamoqda.

O'zbekistonda ham ta'lim tizimini isloh qilish doirasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, maktab-oila-mahalla hamkorligini kuchaytirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Bu esa ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirishni ijtimoiy pedagogikaning muhim ilmiy-amaliy muammolaridan biri sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy muhit masalasi falsafa, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlarida keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, uni ijtimoiy-pedagogik rivojlantirish mexanizmlari nuqtai nazaridan kompleks o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud ishlarda asosan maktab iqlimi, tarbiyaviy muhit, ijtimoiylashuv yoki pedagogik boshqaruvning ayrim jihatlarini yoritilgan bo'lib, ularning o'zaro integratsiyasiga asoslangan yaxlit konseptual yondashuv yetishmaydi.

Mazkur ilmiy bo'shliq tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirishning nazariy asoslari, tarkibiy komponentlari hamda samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni zarur etadi. Tadqiqotning ilmiy g'oyasi ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik boshqaruv, ijtimoiy sheriklik, qadriyatlar tizimi va kommunikativ hamkorlikning integratsiyasi asosida rivojlantiruvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida konseptuallashtirishga asoslanadi.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirish muammosining ilmiy o'rganilganlik darajasi**

Ijtimoiy-madaniy muhit muammosi fanlararo tadqiqot obyekti sifatida falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika hamda ijtimoiy pedagogika fanlari doirasida turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mazkur tushunchaning mazmuni jamiyat taraqqiyoti, shaxs rivojlanishi va ta'lim tizimining transformatsiyasi bilan uzviy bog'liq ravishda boyib borgan.

Falsafiy yondashuvlarda ijtimoiy-madaniy muhit insonning ma'naviy kamoloti, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish va ijtimoiy tajribani avlodlararo uzatishning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv muhitni shaxs taraqqiyotining tashqi sharti emas, balki uning rivojlanishini belgilovchi madaniy makon sifatida baholaydi.

Sotsiologik tadqiqotlarda esa ijtimoiy-madaniy muhit ijtimoiy institutlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy kapitalning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi murakkab tizim sifatida izohlanadi. Ayniqsa, P. Bourdieu tomonidan ilgari surilgan madaniy kapital nazariyasi oilaviy va maktab muhiti o'quvchilarning ta'lim natijalari hamda ijtimoiy muvaffaqiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur yondashuv ta'limdagi ijtimoiy tengsizlik sabablarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik tadqiqotlarda L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Olim shaxs rivojlanishini ijtimoiy muloqot va madaniy vositalarni egallash jarayoni bilan bog'laydi. Uning fikricha, bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishi avvalo ijtimoiy faoliyat jarayonida shakllanadi, keyinchalik esa individual sifatga aylanadi. Ushbu nazariya pedagogik jarayonda ijtimoiy-madaniy muhitning hal qiluvchi rolini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Ijtimoiy-madaniy muhitni tizimli tahlil qilishda U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariyada shaxs rivojlanishi mikro, mezo, ekzo va makrotizimlarning o'zaro ta'siri mahsuli sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuv maktab, oila, mahalla va jamiyatning yagona ijtimoiy-pedagogik makon sifatidagi o'zaro bog'liqligini ochib beradi.

So'nggi yillarda xalqaro tadqiqotlarda School Climate, Whole School Approach, Social and Emotional Learning (SEL) hamda OECD Learning Compass 2030 konsepsiyalari maktab muhitining o'quvchilar rivojlanishidagi o'rnini yangicha talqin qilmoqda. Ushbu yondashuvlarda xavfsiz ta'lim muhiti, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, hamkorlik madaniyati va fuqarolik mas'uliyati ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichlari sifatida e'tirof etiladi. Biroq ular asosan maktabning psixologik yoki tashkiliy muhitiga e'tibor qaratib, ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirish mexanizmlarini kompleks tizim sifatida yoritmaydi.

Respublikamiz olimlari tomonidan ham ta'lim muhiti, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiylashuv va pedagogik boshqaruv masalalari bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyatida ijtimoiy-madaniy muhitning alohida komponentlari o'rganilgan bo'lib, ularni yagona integrativ ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida rivojlantirish mexanizmlariga yetarli e'tibor qaratilmagan. Demak, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy muhit masalasi turli fanlar kesimida keng o'rganilgan bo'lsa-da, umumiy o'rta ta'lim muassasasida uni pedagogik rivojlantirish mexanizmlarining integrativ modelini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar yetarli emas.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarning tanqidiy tahlili quyidagi ilmiy bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatdi:

- ijtimoiy-madaniy muhitning yagona ijtimoiy-pedagogik ta'rifi ishlab chiqilmagan;
- pedagogik rivojlantirish mexanizmlarining tarkibi va o'zaro bog'liqligi yetarlicha asoslanmagan;
- makro, mezo va mikro darajadagi rivojlantirish mexanizmlarining integratsiyasi bo'yicha konseptual model taklif etilmagan;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun ijtimoiy-madaniy muhitni baholash mezonlari va monitoring tizimi to'liq ishlab chiqilmagan.

Shu kabi ilmiy bo'shliqlar ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirishning integrativ ijtimoiy-pedagogik konsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan bo'lib, sifat tadqiqot dizayni asosida amalga oshirildi. Tadqiqot fanlararo yondashuv tamoyiliga tayangan holda falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va ijtimoiy pedagogika fanlarida shakllangan ilmiy qarashlarni integratsiyalash orqali olib borildi.



Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, ijtimoiy-pedagogik, aksiologik, ekologik, madaniy-tarixiy va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar ijtimoiy-madaniy muhitni alohida elementlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan komponentlardan iborat integrativ ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. **Nazariy tahlil** - ijtimoiy-madaniy muhit va uni pedagogik rivojlantirishga oid milliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish;
2. **Qiyosiy tahlil** - falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik yondashuvlarni o'zaro solishtirish hamda ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash;
3. **Kontent-tahlil** - UNESCO, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlarning ta'limga oid konseptual hujjatlari hamda zamonaviy ilmiy nashrlar mazmunini tizimli tahlil qilish;
4. **Ilmiy sintez va umumlashtirish** - mavjud nazariy qarashlarni integratsiyalash orqali mualliflik konsepsiyasini ishlab chiqish;
5. **Mantiqiy modellash** - ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirishning strukturaviy-funksional modelini konseptual darajada asoslash.

Tadqiqotning axborot bazasini ijtimoiy pedagogika, ta'lim nazariyasi, maktab muhiti, ijtimoiylashuv va madaniy rivojlanish masalalariga bag'ishlangan milliy hamda xorijiy ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida manbalar tanlashda ularning ilmiy ishonchliligi, dolzarbligi va mavzuga bevosita aloqadorligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda konseptual taqqoslash, kategoriyalashtirish va interpretativ tahlil usullaridan foydalanildi. Bu usullar mavjud ilmiy qarashlar o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirishning integrativ ijtimoiy-pedagogik modelini nazariy jihatdan asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhiti faqat pedagogik jarayon amalga oshiriladigan makon emas, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini shakllantirishni ta'minlovchi murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim hisoblanadi.

Nazariy manbalar va xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili natijasida ijtimoiy-madaniy muhitning mazmunini belgilovchi asosiy komponentlar aniqlandi (1-jadval).

1-jadval: Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitning tarkibiy komponentlari va ularning ijtimoiy-pedagogik tavsifi

Tarkibiy komponent	Mazmuni	Ijtimoiy-pedagogik vazifasi
Aksiologik komponent	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy me'yorlar, fuqarolik mas'uliyati	O'quvchilarda qadriyatlarga asoslangan dunyoqarash va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish
Ijtimoiy komponent	Maktab-oila-mahalla hamkorligi, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy munosabatlar	O'quvchilarning ijtimoiylashuvini ta'minlash va ijtimoiy faolligini rivojlantirish
Kommunikativ komponent	Pedagog, o'quvchi, ota-ona va jamoatchilik o'rtasidagi muloqot hamda hamkorlik	Samarali kommunikativ muhitni shakllantirish va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish
Madaniy komponent	Milliy madaniyat, an'analar, urf-odatlar, madaniy meros va madaniy tadbirlar	Madaniy identifikatsiyani rivojlantirish va madaniy merosga hurmatni shakllantirish
Boshqaruv komponenti	Pedagogik boshqaruv, monitoring, muvofiqlashtirish va rivojlantirish strategiyalari	Ijtimoiy-madaniy muhitni tizimli boshqarish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash

Jadvalda keltirilgan komponentlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, umumiy o'rta ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhitini yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida tavsiflaydi. Har bir komponent alohida pedagogik vazifani bajarishi bilan birga, ularning integratsiyasi o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirish komponentlarning alohida faoliyati emas, balki ularning o'zaro uyg'unlashgan holdagi pedagogik boshqaruvi natijasida amalga oshadigan uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish asosida ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirishga ta'sir etuvchi ustuvor omillar ham aniqlandi. Ularga pedagogik boshqaruv, ijtimoiy sheriklik, qadriyatlarga asoslangan tarbiya, kommunikativ hamkorlik, pedagogik qo'llab-quvvatlash va refleksiv monitoring kiradi. Mazkur omillar o'zaro integratsiyalashgandagina ta'lim muassasasida barqaror rivojlanish muhiti shakllanadi.

Olingan natijalarga tayangan holda, quyidagi mualliflik ta'rifimizni keltiramiz:

Umumiy o'rta ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhiti – bu pedagogik boshqaruv, ijtimoiy sheriklik, qadriyatlar tizimi, madaniy faoliyat va kommunikativ hamkorlikning integratsiyasi asosida shakllanadigan hamda o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, fuqarolik kompetensiyalari va shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi ochiq ijtimoiy-pedagogik tizimdir.

Mazkur ta'rifning ilmiy ahamiyati shundaki, unda ijtimoiy-madaniy muhit faqat pedagogik yoki psixologik hodisa sifatida emas, balki ko'p komponentli, boshqariladigan va rivojlantiriladigan ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida talqin etilgan.

Mazkur tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirish masalasi ko'p omilli va tizimli yondashuvni talab etishini ko'rsatdi. Olingan natijalar xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlar bilan qiyoslanganda, ularning ayrim jihatlari mavjud nazariyalarni tasdiqlashi, ayrim jihatlari esa ularni to'ldirishi va kengaytirishi aniqlandi.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida shaxs taraqqiyotining asosiy manbai ijtimoiy muloqot va madaniy vositalarni o'zlashtirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazariyasi shaxs rivojlanishini mikro, mezo va makro tizimlarning o'zaro ta'siri bilan izohlaydi.

P. Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan madaniy kapital nazariyasi oila va maktabning ta'lim natijalariga ta'sirini ochib beradi. Tadqiqot natijalari mazkur nazariyani qo'llab-quvvatlaydi, biroq madaniy kapitalning samarali shakllanishi faqat oilaviy resurslarga emas, balki maktabdagi pedagogik boshqaruv sifati, ijtimoiy sheriklik va qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy faoliyatga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

UNESCO tomonidan ilgari surilgan Global Citizenship Education (GCED) hamda OECDning Learning Compass 2030 konsepsiyalarida ta'lim muassasasining asosiy vazifasi o'quvchilarni barqaror rivojlanish, fuqarolik mas'uliyati va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalash deb belgilanadi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvlar bilan uyg'un bo'lib, ularni O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimining milliy qadriyatlari va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

Mavjud ilmiy ishlarda ijtimoiy-madaniy muhit ko'proq ta'lim muhiti, maktab iqlimi, tarbiyaviy muhit yoki ijtimoiylashuv omili sifatida talqin etiladi. Mazkur tadqiqotning farqli jihati shundaki, unda ijtimoiy-madaniy muhit pedagogik rivojlantirish obyekti sifatida qaraladi hamda uning boshqaruv, qadriyatlar, kommunikativ hamkorlik va ijtimoiy sheriklik komponentlari yagona tizim doirasida asoslanadi.

Natijada ishlab chiqilgan integrativ yondashuv ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning nazariy asoslarini kengaytirib, uni umumiy o'rta ta'lim muassasasida strategik boshqaruvning muhim yo'nalishi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhiti ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan integrativ ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida konseptualashtirildi; ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirishning tarkibiy komponentlari va ularning o'zaro funksional bog'liqligi ilmiy jihatdan tizimlashtirildi; pedagogik boshqaruv, ijtimoiy sheriklik, qadriyatlar tizimi va kommunikativ hamkorlikning o'zaro integratsiyasiga asoslangan mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi; umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni pedagogik rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari takomillashtirildi hamda uning konseptual modeli asoslandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirish o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish va ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashning muhim ijtimoiy-pedagogik omili ekanligini ko'rsatdi. Ijtimoiy-madaniy muhitning asosiy tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi hamda ularni pedagogik boshqaruv asosida integrativ rivojlantirish zarurligi asoslandi. Taklif etilgan yondashuv umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ijtimoiy-madaniy muhitni takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini boyitadi va amaliyotda qo'llash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Harvard University Press.
2. Bourdieu, P. (1986). The forms of capital. In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education (pp. 241-258). Greenwood Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. Macmillan.
5. Bruner, J. (1996). The Culture of Education. Harvard University Press.
6. OECD Learning Compass 2030. OECD Learning Compass 2030: A series of concept notes. OECD Publishing.
7. UNESCO. (2021). Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. UNESCO Publishing.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.